

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-8

### JAMOAT XAVFSIZLIGIGA SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK TAHDIDLAR: TUSHUNCHASI VA HUQUQIY TABIATI

Nurmatov Dilshodbek Tursunmurod o‘g‘li

Ish joyi O‘zbekiston Respublikasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi

E-mail: [NurmatovDilshodjon2002@gmail.com](mailto:NurmatovDilshodjon2002@gmail.com)

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada aholining\_sanitariya-epidemiologik osoyishtalik holatida yashash muhitida tabiatning sifatini yomonlashtiruvchi hamda aholi salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi zararli va xavfli omillar, hamda ular sabab kelib chiqayotgan kasalliliklar va ularni oldini olish kabi fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, ekotizim, tabiiy boyliklar, gigiyena, sanitariya-epidemiologik, epidemiyta, JSST, vabo, gepatit, qoqshoq, difteriya, shol, busefroz, radiatsiya, oltingugurt dioksid, ftorli vodorod.

### САНИТАРНО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЗНАЧИТЕЛЬНО И ПРАВОВАЯ ПРИРОДА

Нурматов Дишодбек Турсунмурод ўғли

Место работы Главное управление охраны Республики Узбекистан

Э-майл: [NurmatovDilshodjon2002@gmail.com](mailto:NurmatovDilshodjon2002@gmail.com)

#### Абстрактный

В данной статье излагаются вредные и опасные факторы, ухудшающие качество природы среды обитания населения, находящегося в состоянии санитарно-эпидемиологического спокойствия, а также вызываемые ими заболевания и их профилактика.

**Ключевые слова:** экология, экосистема, природные ресурсы, гигиена, санитарно-эпидемиологическая, эпидемия, ВОЗ, холера, гепатит, столбняк, дифтерия, паралич, буцефроз, радиация, диоксид серы, фтороводород.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-8

### SANITARY AND EPIDEMIOLOGICAL THREATS TO PUBLIC SAFETY ARE SIGNIFICANT AND LEGAL NATURE

#### Abstract

In this article, the harmful and dangerous factors that deteriorate the quality of nature in the living environment of the population in the state of sanitary-epidemiological tranquility, as well as the diseases caused by them and their prevention are put forward.

**Key words:** ecology, ecosystem, natural resources, hygiene, sanitary-epidemiological, epidemic, WHO, cholera, hepatitis, tetanus, diphtheria, paralysis, bucephrosis, radiation, sulfur dioxide, hydrogen fluoride.

Jamiyat hayotining barqarorligi, aholi turmush darajasining farovonligi, uning salomatligi atrof tabiiy muhit musaffoligi va tozaligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda butun dunyoda insonning nafaqat yashash huquqi, balki sog‘lom turmush kechirishi uchun mo‘tadil atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi muqaddas va daxlsiz bo‘lishi lozimligi e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri inson salomatligi uchun atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash, ekotizimning barqarorligiga erishish va fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlashdan iboratdir. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasidayoq “mamlakatimizning bebafo tabiiy boyliklarini hozirgi va keljak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilish mas’uliyati belgilangan, Asosiy qonunning alohida normasida esa, har kim xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash (42-modda), davlat aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘rishi, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi, davlat atrof muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq,

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi (49-modda)<sup>1</sup> qat’iy mustahkamlangan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minalash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar tizimida aholining sanitariya-epidemioliya xotirjamligini ta’minalash bo‘yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, aholining sanitariya-epidemioliya xotirjamligini ta’minalashning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda zarur qonunchilik bazasi yaratildi hamda bu sohada samarali davlat boshqaruvi va nazorat tizimi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, aholining epidemiologik osoyishtaligini ta’minalash borasida o‘tkazilgan profilaktik, epidemiyaga qarshi va mahalliy emlash tadbirlari natijasida so‘ngi besh yilda ayrim kasalliklar tugatildi, ko‘pgina kasalliklarning keskin dinamik pasayishi kuzatildi. 2022 yilda bolalarni yuqumli kasalliklarga emlash uchun 205 mlrd so‘m ajratildi. Bu mablag‘lar 2017 yilga nisbatan 10 barobar ko‘p va emlash qamrovi 98,0 ga yetkazildi. So‘ngi besh yilda emlash kalendariga 4 turdag‘i yangi vaksina kiritildi. Natijada 2017 yilda qizamiq va qizilcha kasalligi tugatilganligi to‘g‘risida JSSTning sertifikatlari olindi. Ular vabo, shol, difteriya, qoqshol kasalligi umuman qayd etilmadi. 2022 yil yakuniga kelib 2018 yilga nisbatan busefroz 30 %, virusli gepatitning B kasalligi 96,4 % ga, gepatitning S shakli 89,9 % ga, OITS kasalligi 4,2 % ga kamaydi. Soha rivoji uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash maqsadida 243, 4 mln. dollar beshta investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Mamlakatimizda 1992 yildan boshlab atrof tabiiy muhitni me’yordan ortiq ifloslantirganlik uchun to‘lovlar joriy qilindi, ularni undirish tartibi belgilandi. Tabiatdan foydalanish me’yorlari va qoidalarini buzganlik uchun jarima belgilash va undirish mexanizmi o‘zgartirildi. 2003 yil may oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:O‘zbekiston, 2023

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma’lumoti. 2023 yil 2 mart

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari joriy qilindi.

Garchand, o‘tgan yillar mobaynida yurtimizda aholining sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, bu borada o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham talaygina. Xususan, mamlakatimiz hududida 13 ta zaharli kimyoviy moddalarni ko‘madigan jarliklar joylashgan hamda foydalanish taqiqlangan jami taxminan 9 ming tonna zaharli kimyoviy va radiatsiyaviy moddalar ko‘milgan bo‘lib, barcha zaharli kimyoviy moddalar ko‘milgan joylarni saqlash sharoiti belgilangan talablarga javob bermaydi. Surxondaryo viloyatining Sarosiyo, Uzun, Denov tumanlaridagi mavjud murakkab ekologik vaziyat muayyan darajada Tojikiston alyuminiy zavodining zararli tashlamalarining o‘ziga xos salbiy ta’siri bilan izohlanadi. O‘tgan asrning 80-yillari va 90-yillari boshlaridayoq oltingugurt dioksidi va fторli vodorodning Sarosiyo tumani aholisining salomatligiga salbiy ta’siri aniqlangan.

Tojikiston alyuminiy zavodi ishga tushirilgan vaqtidan boshlab Surxondaryo viloyatida bolalar va kattalarning endokrin tizimi (endem buqoq) kasalliklari bilan og‘rishi, yangi tug‘ilgan bolalarda patologik buzilishlar tez-tez uchrashi, ayollar reproduktiv funksiyalarining buzilishi, flyuorozga uchrashi o‘rtacha viloyat ko‘rsatkichidan 1,5-3 baravar ko‘pdir. So‘nggi 10 yil davomida xavfli yangi o‘smalar nozoologik shakllari doirasi xavfli limfomalar, ovqat hazm bo‘lishi organlari saratoni, oshqozon saratoni, suyakmushak tizimi xavfli shishlari kabi nozoologik shakllar solishtirma ulushining eng yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bularning barchasi ushbu muammoning naqadar dolzarb ekanligini, uning ustida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliyatga joriy qilish lozimligi muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar tushunchasi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tganda, ushbu tushunchaning mazmunini tashkil etuvchi bir qator iboralarga e’tibor qaratish lozim. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi “Ahолining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”ги qonunining

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

3-moddasida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikka tegishli bo‘lgan bir qator asosiy tushunchalar mustahkamlangan bo‘lib, ular sirasiga “davlat sanitariya nazorati”, “insonning yashash muhiti”, “sanitariya-epidemiologik vaziyat”<sup>3</sup> kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Ushbu qonunga ko‘ra, davlat sanitariya nazorati deganda, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olishga, ularni aniqlash va bartaraf etishga doir faoliyat tushuniladi. Insonning yashash muhitini uning hayot faoliyati shart-sharoitlarini belgilaydigan ob‘ektlar, hodisalar va atrof tabiiy muhit omillari majmui, deb anglash mumkin. Sanitariya-epidemiologik vaziyatni esa, aholi yashayotgan muhitning va sog‘lig‘ining muayyan hududdagi, ko‘rsatilgan aniq vaqtdagi holati sifatida tushunish kerak<sup>4</sup>. Ushbu tushunchalarning mazmuni jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar tavsifini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar tushunchasi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tganda, veterinar osoyishtalik tushunchasi va unda qo‘llaniladigan iboralarning tavsifini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Shunday iboralarning ko‘pchiligi O‘zbekiston Respublikasi “Veterinariya to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra, biologik chiqindilar - hayvonlarning jasdлari, veterinariya-sanitariya jihatidan xavfli deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariyaga oid biologik sanoat chiqindilari; veterinariya - hayvonlarning hayoti va sog‘lig‘i muhofaza qilinishini, hayvonlar kasallikkлari paydo bo‘lishining, tarqalishining oldini olishni va ularni tugatishni, aholini hayvonlar va odam uchun umumiyl bo‘lgan kasallikklardan muhofaza qilishni, O‘zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasallikkлari olib kirilishidan muhofaza qilishni ta’minlashga, hayvonlarga veterinariya xizmati ko‘rsatilishini amalga oshirishga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududining veterinar osoyishtaligini, davlat veterinariya xizmati

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015, 34-son, 451-modda

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015, 34-son, 451-modda

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi; nobop punkt - hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'chog'i aniqlangan hudud; cheklovchi tadbirlar (karantin) - hayvonlar yuqumli kasalliklari o'choqlarining doirasi kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslikga va ularni tugatishga, ular tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakati cheklanishini nazarda tutuvchi ma'muriy, epizootiyaga qarshi chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar; epizootiya - tegishli hududda hayvonlarning o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklari tarqalishi; hayvonlarning yuqumli kasalliklari - paydo bo'lishiga hayvonlarga kasalliklarning qo'zg'atuvchilari ta'siri sabab bo'ladigan, tarqalishi hamda boshqa hayvonlarga va odamga o'tishi ehtimoli mavjud bo'lgan kasalliklar<sup>5</sup> tushuniladi.

*Aytiganlardan kelib chiqib, veterinar osoyishtalikka quyidagicha ta'rif berish mumkin: veterinar osoyishtalik deganda, hayvonlarning sog'lig'iga salbiy omillarning zararli ta'sirlari, epizootiya mavjud bo'lmagan, shuningdek hayvonlarning yashashi uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlanadigan holat tushuniladi.*

Bundan tashqari, jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar tushunchasi to'g'risida fikr yuritganda, o'simliklar karantining tavsifini ham aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. *O'simliklar karantini deganda, qishloq xo'jaligiga va boshqa o'simliklar dunyosiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan o'simliklar karantini ob'ektlari kirib kelishining, tarqalishining oldini olishga hamda bunday ob'ektlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmui tushuniladi.*

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tahlili jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahidlarning huquqiy tabiat muhofaza qilishning ikki ob'ektini – inson

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2019 y., 03/19/583/4016-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

salomatligi va uning yashash muhiti, ya’ni atrof tabiiy muhitning sog‘lomligi tashkil etadi degan xulosaga kelish imkonini beradi. Jamiyatning salomatligi O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarining va shu zaminda istiqomat qilayotgan har bir insonning sog‘lomligidan kelib chiqib belgilanadi. Jamiyatning sog‘lomlik darajasi esa, sog‘lom va bemor insonlarning nisbati asosida aniqlanadi. Shu sababdan, jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar deganda, alohida shaxsning emas, balki jamiyatning salomatligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Bu har bir inson o‘z salomatligi haqida qayg‘urish huquqiga ega ekanligini, “jamoaviy salomatlik” esa, davlat va jamiyat tomonidan muhofaza qilinishini anglatadi.

Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahidlarning predmeti, ob’ekti va uni huquqiy tartibga solish usullarini, shuningdek, amaldagi qonunchilikning tegishli normalarini tahlil etish natijasida jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahidlarga oid ijtimoiy munosabatlар ekoliya huquqiga oid qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan va ular bilan tartibga solinadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari sanitariya qonunchiligining tarkibini tashkil etadi. Sanitariya-epidemiya yoki epidemiyaga qarshi qonunchilik normativ-huquqiy hujjatlari insonlarda yuzaga keladigan yuqumli kasalliklarning oldini olish va bartaraf etish hamda bunday shaxslarni davolash tartibini belgilaydi. Sanitariya-gigiyena qonunchiligi esa, insonlarning har qanday kasallanishiga, shuningdek, jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar sohasida favqulodda holatlar yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha profilaktika chora-tadbirlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

Sanitariya qonunchiligining atrof tabiiy muhit sifati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qismi tabiatni muhofaza qilish qonunchiligining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, ekoliya huquqiga taalluqli hisoblanadi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik holatida yashash muhitida tabiatning sifatini yomonlashtiruvchi hamda aholi salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi zararli va xavfli omillar mavjud bo‘lmasligi kerak. Yashash muhitiga salbiy ta’sir

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

ko'rsatuvchi omillar qonunchilik bilan belgilanmagan bo'lib, ushbu tushunchani legal ta'rifini berish uni tushunishdagi qator noaniqliklarga barham bergen bo'lar edi. Bu borada xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik adabiyotlarda bildirilgan fikr va mulohazalarni e'tiborga olgan holda aholining sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligiga quyidagicha ta'rif berish lozim, deb o'ylaymiz: "*Aholining sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi – bu jamoat salomatligi va insonlar yashash muhitining odam organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillari bo'lmagan hamda uning qulay turmush kechirishi uchun zarar shart-sharoitlar ta'minlangan holatidir*".

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik holati darajasi – integral ko'rsatkich bo'lib, u bir tomondan aholi sog'lig'ining ahvolini (demografik ko'rsatkichlar, kasallanish, nogironlik, jismoniy rivojlanish darajasi), ikkinchi tomondan atrof muhitning holatini ko'rsatadi (suv, havo, oziq-ovqatlar ifloslanishi, mehnat va turmush, dam olish sharoiti).

Harakatdagi ekologiya va sanitariya qonunchiligi aholining yashash muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni tabiiy va texnogen, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ishlab chiqarish va maishiy omillarga ajratadi. Atrof tabiiy muhit sifatini yomonlashtiruvchi omillarni muayyan manbalarga tasniflash kasallanish sabablari va insonlarning barvaqt o'limini aniqlash imkonini beradi hamda jamoatchilik faoliyatini ularni bartaraf etishga yo'naltiradi.

Sanitariya va ekologiya qonunchiligiga binoan, jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlarning oldini olish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: a) ekologik holatni barqarorlashtirishga qaratilgan respublika va mahalliy dasturlarni ishlab chiqish; b) dasturlarni amalga oshirish yo'l xaritasi va chora-tadbirlarini qabul qilish; v) sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlashni tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish; g) aholini sanitariya-epidemiologik holat bilan bog'liq axborot bilan ta'minlash; d) aholining sanitariya-epidemiologik madaniyatini shakllantirish; ye) sanitariya-epidemiologik

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik choralarini mukammallashtirish; z) sanitariya-epidemiologik me’yorlash, ekologik monitoring tizimini kuchaytirish.

Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish ob’ekti bo‘lib, fuqarolarning inson organizmiga ta’sir etuvchi tabiiy, texnogen va ijtimoiy zararli va xavfli ta’sirlar mavjud bo‘lmagan sharoitda turmush kechirishiga bo‘lgan huquqi hisoblanadi. Ushbu huquq quyidagi muhofaza ob’ektlarida o‘z ifodasini topadi: a) insonning salomatligi va hayoti; b) qulay atrof tabiiy muhit; v) o’simlik va hayvonot dunyosi yashash muhitining holati; g) yer, yer qa’ri, tuproq, suv va atmosfera havosining holati.

Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahidlarning oldini olishda ma’muriy (ruxsat berish, taqiqlash, cheklash), iqtisodiy, tashkiliy, maxsus, huquqiy va ta’lim-tarbiya usullaridan foydalilaniladi. Iqtisodiy usul korxona, muassasa va tashkilotlarning xo‘jalik faoliyati jarayonida aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ixtiyoriy ta’minlashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Tashkiliy usul ekspertiza o’tkazish, atrof tabiiy muhitga ta’sirni baholash, litsenziyalash, me’yorlash, atrof tabiiy muhit sifati hamda inson salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi manbalar monitoringi kabilarni o‘zida mujassam etadi. Maxsus usul yordamida kasallik o‘choqlarini bartaraf etish, profilaktika qilish, tegishli hududlarda karantin joriy etish tadbirlari amalga oshiriladi. Huquqiy usul ekologik tahidlarning oldini olishni takomillashtirishga bag‘ishlangan qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishni nazarda tutadi. Ta’lim-tarbiya usulida aholining ekologik ongini oshirishga bag‘ishlangan tashviqot-targ‘ibot ishlari olib borish nazarda tutiladi.

Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahidlarning oldini olishda sanitariya qonunchiligi muhim ro’l o‘ynaydi va uni quyidagicha tasniflash mumkin: a) sanitariya-gigiyena qonunchiligi; b) sanitariya-epidemiya yoki epidemiyaga qarshi qonunchilik; v) sanitariya-veterinariya qonunchiligi. Ushbu qonunchilik

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

yo‘nalishlari inson salomatligi va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni ta’minlashga qaratilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Sanitariya-epidemiya yoki epidemiya qarshi qonunchilik normativ-huquqiy hujjatlari insonlarda yuzaga keladigan yuqumli kasalliklarning oldini olish va bartaraf etish hamda bunday shaxslarni davolash tartibini belgilaydi. Sanitariya-gigiyena qonunchiligi esa, insonlarning har qanday kasallanishiga, shuningdek, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasida favqulodda holatlar yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha profilaktika chora-tadbirlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Sanab ko‘rsatilgan qonunchilik yo‘nalishlarida ko‘rsatilishicha, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikning asosiy belgilari sifatida:

- 1) atrof tabiiy muhitning ifloslanishi amaldagi standartlar doirasida, uning quyi darajasi miqyosida bo‘lishi kerak;
- 2) bakteriologik ta’sir sezilmasligi lozim;
- 3) ifloslanishga oid tabiiy o‘choqlar inson faoliyati va yashash makonidan yiroqda bo‘lishi zarur;
- 4) texnogen ifloslanish, jumladan radioaktiv ifloslanishni ham qamrab olishi hamda ma’lum sanitariya hududlari doirasida namoyon bo‘lishi talab etiladi;
- 5) oziq-ovqat mahsulotlari ifloslangan bo‘lmasligi kerak;
- 6) insonlar sanoat ob’ektlaridan belgilangan normativdan oshmaydigan ta’sirda bo‘lgan hududlarda istiqomat qilishi lozim;
- 7) atrof tabiiy muhitga chiqariladigan chiqindi va zararli moddalar normativ me’yorming umumiylaridan oshmasligi kerak<sup>6</sup>.

Aksincha, atrof tabiiy muhitning sanitariya-epidemiologik osoyishta emasligi holati texnogen chiqindilarning atrof tabiiy muhit ob’ektlarida belgilangan normativ va standartlardan oshganligi, hududda yuqori bakteriologik ta’sirning sezilishi, fuqarolarning ifloslangan hududlar sanitariya-muhofaza zonalarida istiqomat qilishi, o‘rtacha kasallanish va o‘lim darajasi atrof tabiiy muhit omillari ta’sirida odatdagagi ko‘rsatkichdan oshganligi, aholining yuqumli kasalliklarga uchrashi bilan bog‘liq

<sup>6</sup> Беляев Е.Н., Зайцева Н.В., Шур П.З. Санитарно-эпидемиологическая безопасность как первый этап обеспечения санитарно-эпидемиологическая благополучия населения России //Гигиена и санитария, 1997, № 6

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

epidemik jarayonni nazorat qilishning murakkabligi, iqtisodiy zararning atrof tabiiy muhitning sanitariya-epidemiologik xavfsizlik holatiga nisbatan bir necha marta oshganligi belgilari bilan tavsiflanadi Demak, jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlarning oldini olishni jamoat salomatligi va insonlar yashash muhitining odam organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillari bo'lmagan hamda uning qulay turmush kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar ta'minlanganlik holati sifatida tushunish mumkin.

*Shundan kelib chiqqan holda, insonning sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi deb, unga yashash uchun atrof tabiiy muhit omillarining zararli ta'siri mavjud bo'lmagan, uning hayoti va faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlangan, inson organizmiga ta'sir etuvchi tabiiy, texnogen va ijtimoiy zararli hamda xavfli omillar mavjud bo'lmagan sharoitda turmush kechirishi mumkin bo'lgan sog'lig'ining holati tushuniladi.*

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumoti. 2023 yil 2 mart.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015, 34-son, 451-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2019 y., 03/19/583/4016-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
5. Беляев Е.Н., Зайцева Н.В., Шур П.З. Санитарно-эпидемиологическая безопасность как первый этап обеспечения санитарно-эпидемиологическая благополучия населения России //Гигиена и санитария, 1997, № 6
6. D.T.Nurmatov (2022). Jamoat xavfsizligida Sanitariya-epidemiologik tahdidlar oldini olish sohasida xalqaro tajriba va undan O'zbekiston Respublikasida foydalanish muammolari. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF "SCIENCE AND INNOVATION" Volume:1 Issue:6 / 202-206 Toshkent.
7. D.T.Nurmatov (2022). Jamoat xavfsizligini sanitariya-epidemiologik tahidlardan xuquqiy himoya qilishni takomillashtirish. EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES INNOVATION" Volume:2 Issue:13 /196-203. Toshkent.
8. D.T.Nurmatov (2023). Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar tavsifi. TADQIQOTLAR jahon ilmiy –metodik jurnal. 5-son 1-to'plam /281-291.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-8

9. D.T.Nurmatov (2024). Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) (92-95) Volume. 7, Issue 04, April 2024.
10. D.T.Nurmatov (2023) Sanitariya – epidemiologik tahdidlarning oldini olish sohasida davlat boshqaruvi va nazoratining o'rni va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida Harbiy Intizomni Mustahkamlashning Nazariy Va Amaliy Muammolari Mavzusidagi Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiya Materiallari 30.01.2023/361-368.
11. D.T.Nurmatov (2023) Sanitariya-epidemiologik tahdidlarni oldini olish sohasida uchraydigan huquqbazarliklar turlari va ularni oldini olish muammolari. O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti Inson qadrini ulug'lovchi xalqparvar davlat barpo etish respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 20-aprel 95-97.

C M R T